

## **“Farhod va Shirin” Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilgan mashhur dramatik asardir**

**Toshkent davlat taransport universiteti**  
**Ro‘zmamatova Zilola Dilshodbek qizi**

**Annotatsiya.** Maqsud Shayxzoda jahon adabiyotining ko‘plab noyob asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning tarjimalari orqali o‘zbek kitobxonlari jahon klassiklarining ijodi bilan tanishish imkoniga ega bo‘lgan. “Farhod va Shirin” Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilgan mashhur dramatik asarlardan biri bo‘lib, u buyuk oshiqlar Farhod va Shirin haqidagi afsonaviy hikoya asosida yaratilgan. Bu pesada muhabbat, jasorat va fidokorlik mavzulari yorqin aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Madsud Shayxzoda, O‘zbekiston adabiy maydonida o‘z ovozi topgan shoir, umrlar bo‘ladiki, tiriklik va o‘liklik, inson qadr-qimmatini, falsafiy tafakkur.

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, zabardast dramaturg, adabiy faylasuf Maqsud Ma’sum o‘g‘li Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Oqdosh shahrida tavallud topdi. Boshlang‘ich ma’lumotni Oqdoshda olgach, yangi sovet maktabida o‘qishni davom ettirdi. 1925 yildan muallimlik qilgan Shayxzoda Boku Oliy pedagogika institutini sirdan o‘qib bitirdi.

U 1928 yilda Toshkentga kelib, turli ro‘znoma va oynomalar muharririyatlarida, 1935—1938 yillarda esa O‘zbekiston SSR Fanlar Komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938 yildan Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti o‘zbek klassik adabiyoti kafedrasiga rahbarlik qildi, yuqori malakali kadrlar tayyorladi. Shoirning adabiy faoliyati 1929 yildan boshlandi. Uning «O‘n she’r» (1932), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934), «Jumhuriyat» (1935) to‘plamlarining nashr etilishi adabiyotga o‘ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Ulug‘ Vatan urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g‘alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug‘lovchi, front orqasidagi kishilarining fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» (1941). «Jang va qo‘shiq» (1942), «Kapitan Gastello» (1941), «Ko‘ngil deydiki» kabi she’riy to‘plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» (1944) tarixiy drama va boshqa qator publitsistik asarlarini yaratdi.

Urushdan keynigi tinch qurilish yillarida Vatanimiz bo‘ylab keng quloq yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash shoirning «O‘n besh yilning daftari»,

«Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak devoni» kabi she'riy to'plamlari uchun asosiy mavzu bo'ldi.

1958 yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishidagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Xassos shoir 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi bilan iste'dodli dramaturg sifatida tanildi. U buyuk inson — Ulug'bek obrazi orqali o'zbek dramaturgiyasida fojea janrining klassik namunasini yaratdi.

Shayxzoda Pushkinning «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» poemalari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning «Hamlet» va «Romeo va Juletta» tragediyalarini va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga ag'dardi. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi.

Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassiklarining mahorat maktabidan ta'lim oldi, ilg'or an'analarini o'zida mujassamlashtirgan she'rlar yozdi. Shoirning adabiyot sohasidagi xizmatlari sho'ro hukumati tomonidan taqdirlangan. O'zbek adabiyotining tribun shoirlaridan Maqsud Shayxzoda falsafiy fikrlarga boy hikmatomuz asarlari bilan xalqimiz qalbida abadiy yashaydi. U bir kam oltmish yil umr ko'rdi. 1967 yilda olamdan o'tdi.

Maqsud Shayxzoda (1908–1967) o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, u shoir, dramaturg va tarjimon sifatida xalq muhabbatiga sazovor bo'lgan. Uning ijodi insonparvarlik, vatanparvarlik va millatga sadoqat g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Uning asarlari hanuzgacha o'zbek adabiyoti va madaniyatida muhim o'rin tutadi.

Maqsud Shayxzoda 1908 yilda tug'ilgan. U adabiy faoliyatini she'r yozishdan boshlab, keyinchalik dramaturgiya va tarjima sohasida ham ijod qilgan. Uning asarlarida milliy ruh, Vatanga muhabbat va inson qadr-qimmatini tarannum etilgan. Shayxzoda o'z asarlarida o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va milliy qahramonlik ruhini ulug'lagan. «Jonkuyar» – Vatan va Millatga Sadoqat Tarannumi. Maqsud Shayxzodaning eng mashhur asarlaridan biri «Jonkuyar» bo'lib, u Vatanga muhabbat, jasorat va xalqparvarlik ruhida yozilgan. Bu to'plamdagi she'rlar inson qalbidagi yuksak tuyg'ularni uyg'otadi va Vatan uchun fidoyilikni targ'ib qiladi.

Shayxzoda o'zbek dramaturgiyasiga ham katta hissa qo'shgan. Uning «Farhod va Shirin», «Taxir va Zuhra» kabi pesalari teatr sahnalarida katta muvaffaqiyat qozongan. Bu asarlar milliy an'analar, sevgi va jasoratni madh etadi.

“Farhod va Shirin” Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilgan mashhur dramatik asarlardan biri bo‘lib, u buyuk oshiqlar Farhod va Shirin haqidagi afsonaviy hikoya asosida yaratilgan. Bu pesada muhabbat, jasorat va fidokorlik mavzulari yorqin aks ettirilgan. Asar qahramonlari o‘z baxti va Vatan ravnaqi yo‘lida kurashadi, bu esa Shayxzodaning ijodidagi Vatanparvarlik g‘oyalarini yanada kuchaytiradi.

Pesada Farhod sevgi va xalq baxti uchun o‘zini qurbon qiladi, bu esa uning obrazini jasorat va sadoqat ramzi sifatida ko‘rsatadi. Shirin esa o‘z qalbidagi muhabbat va sadoqat bilan sevgilisi uchun intilishda davom etadi. Asar o‘z mazmuni va badiiy uslubi bilan o‘zbek teatr san‘atida muhim o‘rin tutadi.

Maqsud Shayxzoda jahon adabiyotining ko‘plab noyob asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning tarjimalari orqali o‘zbek kitobxonlari jahon klassiklarining ijodi bilan tanishish imkoniga ega bo‘lgan.

Maqsud Shayxzoda o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning asarlari hozir ham adabiy muhitda o‘rganilmoqda va o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, millatga sadoqat va insonparvarlik g‘oyalariga yo‘naltirmoqda. Uning merosi yangi avlod uchun ilhom manbai bo‘lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mamurova, F., & Ruzmatova, Z. (2024, October). PHILOSOPHER OF THE POET, WISDOM. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 89-92).
2. Mamurova, F., & Abdisaidov, N. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING BOLALIK DAMLARI. Академические исследования в современной науке, 3(25), 125-131.
3. Mamurova, F., & Boyxurozov, D. (2024, December). U YILLAR O‘TGANLAR SAYXUNDAY OG‘IR...(Maqsud Shayxzoda). In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 12, pp. 235-239).
4. Mamurova, F., & Ruzmatova, Z. (2024, October). PHILOSOPHER OF THE POET, WISDOM. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 89-92).
5. Mamurova, F., & Aktamova, A. (2024, October). DEDICATION TO MAQSUD SHAYKHZODA. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 10, pp. 294-298).
6. Islomovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYXZODA–IKKI XALQ DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 1, pp. 263-266).

7. Mamurova, F., & Ataxanov, O. (2024). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI HAQIDA. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 111-116.
8. Mamurova, Feruza, and Durдона Obutjonova. "DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA." Current approaches and new research in modern sciences 3.4 (2024): 5-8.
9. Obutjonova, D. (2024). O‘ZBEK VA OZARBAJON XALQINING SEVIMLI SHOIRI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 103-105. Mamurova F.I. i Durдона O. (aprel 2024 g.). MAKSUD ShAYXZODANING «MIRZO ULUGBEK"ASARI TALILI. V Mejdunarodnoy globalnoy konferensii (Tom 1, № 6, str. 79-81).
10. Durдона, O., & Mamurova, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA “TOSHKENTNOMA”. In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
11. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO ‘LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 13-16.
12. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
- Durдона, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA’RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).